

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASQARALIYEVA MUXTASAR AZIZJON QIZI**

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV  
ASOSIDA MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Tarbiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogikal sciences**

**Asqaraliyeva Muxtasar Azizjon qizi**

Umumta’lim maktablarida aksiologik yondashuv asosida mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish metodikasi .....5

**Асқаралиева Мухтасар Азизжон кизи**

Методика повышения эффективности обучения на основе аксиологического подхода в общеобразовательных школах .....26

**Asqaraliyeva Muxtasar Azizjon qizi**

Methodology of increasing the effectiveness of learning in a general school based on axiological approaches .....55

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....65

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASQARALIYEVA MUXTASAR AZIZJON QIZI**

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV  
ASOSIDA MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Tarbiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7410 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz(rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (cspu.uz) va «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xodjamqulov Umid Negmatovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi,104-uy) Tel.: (+99870)712-27-55; faks: (+99870)712-45-41; e-mail: chdpu-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi,104-uy) Tel.: (99870) 712-27-55

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.M.Matchonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi o‘rinbosari, p.f.d., professor

**T.T.Kaziyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc),  
dotsent

**R.A.Eshchanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d.(DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashuv va faol axborot almashinuvi jarayonida zamonaviy o‘qitish metodikasining asosiy vazifalaridan biri– bilim berish tizimini modernizatsiyalash bilan bir qatorda ta’lim oluvchilar shaxsining ma’naviy–axloqiy, estetik, fuqarolik va madaniy qadriyatlar asosida rivojlanish ehtiyojini ta’minlashdan iborat. YUNESKO tomonidan qabul qilingan “2030 yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasi”<sup>1</sup> negizida universal insoniy qadriyatlar asosida o‘qitish tamoyillarini ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali ta’lim oluvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilangan. Bu esa, ta’lim subyektlarini ijtimoiy faol, madaniyat va ma’naviyatni saqlaydigan, mustaqil fikrga ega bo‘lishga undovchi yondashuvning ilmiy–nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tadbiq etishni talab etmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlari Janubiy Koreya, Xitoy xalq Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi ta’lim muassasalari va ilmiy–tadqiqot markazlarida ijtimoiy–ma’naviy taraqqiyot talablariga mos bo‘lgan yosh avlodning ijtimoiy, umummadaniy, shaxsiy qadriyatlarini adolat, birdamlik, tinchliksevarlik, mehr–oqibat, empatiyaga moyillik mushtarakligidagi axloqiy qarashlarini “Soft skills”– hayotiy ko‘nikmalar sifatida rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilayapti. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar sathida yosh avlodni mustahkam ma’naviy tamoyillar, g‘oyalar, tuyg‘ular, ideallar asosida tarbiyalash, ularda gumanistik, axloqiy qarashlarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanayapti. Shuningdek, ta’lim jarayoniga aksiologik yondashuvlarga tayangan o‘qitish modellarini tatbiq etish, kafolatlangan ta’lim natijalariga mo‘ljallangan didaktik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etayapti.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan transformatsiyalash jarayonlarida “ o‘qitish va tarbiyalash mexanizmlarining yaxlit tizimini yaratish, iste’dodli, ma’nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish”<sup>2</sup> amalga oshirilayotgan islohotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda adolatli jamiyatning mustahkam poydevorini qurish negizida ta’lim mazmuniga aksiologik yondashuvni joriy etish orqali o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning shaxsiy qadriyatlari, hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish imkoni yaratiladi. Bu jarayonda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham singdirish, xususan, tarbiya o‘quv predmeti bo‘yicha tashkil etilgan darslarni aksiologik yo‘nalishda modellashtirish, o‘quvchilarda insonparvarlik, mehr–shafqat, vatanparvarlik, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan interaktiv etodlar va faol ta’lim texnologiyalarini joriy etish samarador natijalarga olib keladi.

---

<sup>1</sup> In focus Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGS / IAU 2019 conference / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1/IAU Horizons. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light.pdf)

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari. 4-jild.- T.: “O‘zbekiston”, 2020. - 400 b.

O‘zbekiston Respublikasining 2020–yil 23–sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2018–yil 5–sentyabrdagi RF–5538–son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida”, 2022–yil 28–yanvardagi RF–60–son “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020–yil 29–oktabrdagi RF–6097–son “Ilm–fanni 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020–yil 6–noyabrdagi RF–6108–son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim–tarbiya va ilm–fan sohalarini yanada rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017–yil 6–apreldagi 187–son “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb–hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori va boshqa me‘yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy–ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan R.Safarova, U.Mahkamov, Sh.Q.Mardonov, U.Musayev, N.Ortiqov, N.M.Egamberdiyeva, S.T.Yuldasheva, Sh.Z.Taylanova, D.R.Salixova, B.Xodjayev, N.I.Raxmonova, M.Qur‘onov tadqiqotlarida qadriyat mazmuni va aksiologik yondashuvlar, o‘quvchi tarbiyasida qadriyatning zarurati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.A.Slastyonin, G.I.Chijakova, E.N.Shiyanov, N.E.Shurkova, I.R.Podlasiylar umuminsoniy qadriyatlar, ta’limda tarbiyaning ahamiyatini; A.Glinskiy, L.Gribenyuk, N.Kurbet, N.Nekrasova, V.Medvedev, A.Xutoroskiy kabilar o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlashni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning psixologik–pedagogik jihatlari, rivojlantirish mexanizmlarini; O.S.Gazmana, E.V.Bondarevskoy, Sh.A.Amonashvili aqliy rivojlanish hamda o‘quvchilarning axloqiy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish masalalarini; E.V.Bondarevskaya, T.I.Vlasova, T.I.Petrakovalar aksiologik va antropologik yondashuvlar nuqtai nazaridan shaxsning asosiy xususiyatlari ma’naviyat, axloq va insoniylik, tashqi motivatsion soha bilan bog‘liqligini, axloqning ijtimoiy jihatlari, xulq–atvor tamoyillari va normalari shaxslarning bir–biriga va jamiyatga munosabatida namoyon bo‘lishini o‘rganishgan. Shuningdek, ta’limni tashkil etish muammolari, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’limni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, xalqaro baholash dasturlari talablarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari D.Frumin, T.I.Shamov, Yu.Tatur, S.G.Vorovshikov E.M.Boxorskiy, I.V.Komarov, V.A.Bolotov, A.N.Daxin,

T.E.Xavenson, Y.D.Kersha, G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, L.R.Krasnokutskaya, V.Ya.Stoyunin, V.R.Ostrogorskiy, M.A.Ribnikova, V.V.Golubkov kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijlik olimlardan S.T.Hopman, A.Rarrek, E.Verner, G.Brinek, M.Retzl, J.Sachs, R.Sahlberg, H.Niyemi, A.Toom, D.S.Ruxen, L.X.Saljanik, J.Valijarvi, M.Uljens, Dash, Birin Bihari, Harris, G.Sukermanlarning ilmiy izlanishlarida qadriyat, qadriyatlar, axloqiy qarashlar, insoniy fazilatlarini shakllantirishning ilmiy metodik asoslari tadqiq etilgan.

Aksiologik yondashuvlar asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, qadriyatlar va axloqiy tamoyillar asosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning didaktik asosini o'rganish hamda uning metodik tizimini takomillashtirish zarurati mazkur dissertatsiya mavzusini belgilab berdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat universiteti ilmiy ishlari rejasining FZ–214/0001278–sonli “Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvdan foydalanishning amaliy mexanizmlari va texnologiyalari” (2018–2022 y.y.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumta'lim maktablari o'quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish tizimini takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

umumta'lim maktablari o'quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o'qitishning pedagogik–psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish;

umumta'lim maktablari o'quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

“Tarbiya” o'quv predmetini aksiologik yondashuv asosida o'qitishda ta'lim samaradorligini oshiruvchi funksional modelni takomillashtirish;

“Tarbiya” o'quv predmetini aksiologik yondashuv asosida o'qitishda interfaol usullarni tizimlashtirish, ularning samaradorligini aniqlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida umumta'lim maktablari o'quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish tizimini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba–sinov ishlariga Farg'ona viloyati Uchko'prik tumanidagi 20–sonli, Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi 54–sonli va Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 41–sonli umumta'lim maktablarining o'quvchilari jalb qilinib, jami tadqiqotda 415 nafar respondent ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** umumta'lim maktablari o'quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish tizimini takomillashtirishning pedagogik mazmuni, ta'limiy shakllari, didaktik vositalari tashkil etadi.

**Ilmiy tadqiqot metodlari.** Dissertatsiyada analitik va sintetik usullar (kuzatish, hujjatlarni o'rganish, adabiyotlarni tahlil qilish), qiyosiy va komparativistik usullar (qiyosiy tahlil); diagnostika (so'rovlar, testlar, suhbat,

intervyu); deduktiv–induktiv (tahlilning tavsifiy usullari, analogiya) modellashtirish (loyihalash usullari), bashoratli (ekspert baholash, o‘zini–o‘zi baholashni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik– statistika usullari (statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik ko‘rsatish) va boshqalardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

umumta’lim maktablarida aksiologik yondashuv asosida mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari qadriyatlarga ko‘ra, shaxsning emotsional va axloqiy rivojlanishdagi ichki motivatsiya va hayotiy pozitsiyani namoyon qilish omillari vositasida aniqlashtirishga erishilgan;

o‘quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o‘qitish mazmuni milliy qadriyatlarga xos bo‘lgan insonparvarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik xislatlarini rivojlantirishga pedagogik ta’sir ko‘rsatish muammoli vazifalarga yechim topishni loyihalash usullari asosida takomillashtirilgan;

umumta’lim maktablarida “Tarbiya” mashg‘ulotlarining samaradorligini aniqlash maqsadida empatik munosabatlarni rivojlantirish, simbiotik muloqotni shakllantirish va his–tuyg‘ularni tartibga solishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalarning yangi tasirchan tizimi ishlab chiqilgan.

aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar samaradorligini baholashning diagnostik-metodik mexanizmi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning aksiologik kompetensiyasini, his–tuyg‘ularni tartibga solish darajasini va simbiotik muloqotga kirishish ko‘nikmalarini tizimli aniqlash usullari takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tarbiya darslarining o‘quv mazmuniga integratsion tarzda foydalanish imkonini beradigan hayotiy vaziyatlar aks etgan ijtmoy–vizual kontentlar asosida elektron dastur yaratilgan;

o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘rganishiga mo‘ljallangan hamda zamonaviy hayotiy ko‘nikmalar va PISA dasturi talablari asosida mantiqiy, tanqidiy fikrlashlari, axloqiy qarashlari, insoniy fazilatlarini, shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan axborot va badiiy matnlar to‘plami asosida mashq daftari ishlab chiqilgan;

tarbiya fanining ta’lim mazmuniga yo‘naltirilgan muammoli, rivojlantiruvchi, kouch suhbatga asoslangan hamda yakka, juftlikda, jamoaviy faoliyatni amalga oshirish metodikasiga asoslangan amaliy dars ishlanmalari yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy–metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammoni o‘rganishda falsafiy, metodologik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga tayanilganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir–birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta’minlanganligi, tajriba–sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan

natijalarning matematik–statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aksiologik yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish muammosining ilmiy–metodologik asoslari, tarkibi va me’yoriy talablarini optimallashtirish hamda pedagogik imkoniyatlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish (tushunchalar tahlili, hayotiy vaziyatlar bilan solishtirish, diagnostik prognozlash) maktablar o‘quv dasturlariga moslashtirish, dunyo ta’lim makonida kuzatilayotgan konseptual jarayonlar (globallashtirish, raqamlashuv, integratsiyalashuv)ni milliy ta’lim dasturlariga konvertatsiyalash asosida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aksiologik yondashuvlar asosida tarbiya darslarini tashkil etishning samarali usullarini vizual kontentlar va hayotiy vaziyatlarni ta’lim mazmuniga yo‘naltirilgan muammoli, rivojlantiruvchi, loyiha ishi, kouch suhbat kabi metodik tavsiyalar tizimini shaxsga yo‘naltirilgan faoliyat (yakka, juftlik, jamoaviy) orqali amalga oshirishda imitatsion mashqlar (variantiv, mobil, intensiv)ni integratsiya muhitida adartivlashtirish asosida takomillashtirilganligi, mazkur jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy–metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi va ularda ta’lim amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o‘qitish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

aksiologik yondashuvning mazmuni, ilmiy–metodologik asoslari, tarkibi va me’yoriy talablarini optimallashtirish, hayotiy vaziyatlar bilan solishtirish, diagnostik prognozlash hamda dunyo ta’lim makonida kuzatilayotgan jarayonlarni ilmiy–pedagogik modellashtirish asosida takomillashtirilgan, aksiologik yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlariga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DMda uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali 04–36–950–son 21–avgust 2024–yil sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tarbiya darslarini aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirishning adaptivligini hamda integratsion ta’minot dasturlarini samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy moderator, fasilitator, tyutor, mentor kabi pedagogik faoliyat shakllari hamda nazariy bilimlarga muvofiq hayotiy keyslarni dars va darsdan tashqari jarayonlarni samarali tashkil etishning motivatsion, kognitiv, operatsion–texnologik bosqichlariga vertikal integratsiyalash asosida takomillashtirilgan aksiologik yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etishning funksional modeli bo‘yicha taklif va tavsiyalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida bajarilgan II–721101717 raqamli “Xizmat ko‘rsatish

obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi 2024–yil 25–sentabr 1431–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tarbiya darslarini aksiologik yondashuvlarni asosida tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tarbiya darslarini tashkil etishning samarali texnologiyalarini vizual kontentlar va hayotiy vaziyatlarni muammoli, rivojlantiruvchi, loyiha ishi, kouch suhbat kabi metodik tavsiyalar tizimi hamda shaxsga yo‘naltirilgan faoliyat orqali amalga oshirishda variativ, mobil, intensiv imitatsion mashqlarni integratsion ta’lim muhitiga adaptivlashtirish asosida ishlab chiqilgan tarbiya darslarini tashkil etishning samarali usullariga oid ishlanmalar, ilmiy–metodik tavsiyalari va takliflaridan Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani 20–sonli umumta’lim maktabi, Samarqand viloyati Samarqand shahri 41–sonli umumta’lim maktabi va Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani 54–sonli umumta’lim maktablarida amaliy qo‘llanildi (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’limi vazirligi huzuridagi respublika ta’lim markazi 2024–yil 26–sentabrdagi 01/11–11–719–sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tarbiya darslarida ijtimoiy–ta’limiy loyihalarni dars va darsdan tashqari jarayonlarni samarali tashkil etishning pedagogik bosqichlarini aniqlashtirishga hamda o‘quvchilarda insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlar va shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy–metodik tizimini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta ilmiy–amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 141 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Aksiologik yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etishning ilmiy–metodik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida aksiologik yondashuvning pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi, aksiologiyaga

tegishli asosiy tushunchalar,uning paydo bo'lishi va rivojlanishi, aksiologik yondashuvning ta'limdagi ahamiyati, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitishning mavjud holati tahlili, aksiologik yondashuv asosida tarbiya darslarida o'quvchilarda shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish zarurati tadqiq etilgan.

“Aksiologiya” yunoncha “axio” – qadriyat va “logos” – fan, ta'limot – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan degan ma'noni bildiradi. Ushbu termin XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi R.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasidagi muhim yondashuvlardan biri bo'lib, u jamoaviy rivojlanishni jamiyatning oliy qadriyati sifatida belgilaydi. XX asr boshidanoq aksiologiya falsafada alohida yo'nalish sifatida tan olindi. Bu harakat 1902 yilda nemis olimi P.Lapi tashabbusi bilan boshlandi. 1980–yillardan boshlab pedagogik aksiologiya sohasidagi tadqiqotlar rivojlana boshladi (B.S. Gershunskiy, V.M. Rozin, Y.B.Turalov, M.I.Fisher, R.G.Shedrovetskiy). Ta'limni insonravarlashtirish sharoitida o'quvchilarning bilish faoliyatiga motivatsion–qadriyatli munosabatlari B.I. Dodonov, B.G.Kuznetsov, E.A.Mamchur, V.B.Mironov va boshqalar tomonidan o'rganildi.

Psixolog olimlar N. Shalom, D. Shvars tomonidan insonlar o'rtasida shakllanadigan qadriyatlar, ularni tashxislash va madaniy kontekstda tadqiq qilish masalalari o'rganilgan.

Xovard Kirshenbaum tomonidan axloq va xarakter ta'limi (values and character education) bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

L.Vaxovskiy tomonidan “Axiological Potential of Philosophy of Education” maqolasida (2011y.) maorif falsafasining aksiologik salohiyatini tadqiq qilgan bo'lsa, T.Smirnova, N.Bilova, A.Linenkolar tomonidan bo'lajak kadrlarni tayyorlashda aksiologik yondashuvlardan foydalanish masalalari o'rganilgan.

O'zbek olimlari X. Tillashayxova, U.Xodjamkulov, O.Abdug'aniyevlar zamonaviy pedagogikada aksiologik yondashuvning o'rni, o'quvchilarning umumiy insoniy qadriyatlari bo'yicha malakalarini shakllantirish masalasini tadqiq qilishgan.X.A.Tillashayxova esa shaxsning yetukligi, ijtimoiy–psixologik farovonligi kabi sohalarda tadqiqot ishlarini olib borgan.

Tadqiqot natijalaridan umumta'lim maktablari o'quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o'qitishning pedagogik–psixologik xususiyatlari aniqlashtirildi. Ushbu yondashuv orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularni ongli, ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan pedagogik va psixologik jihatlari o'rganildi.

Aksiologik yondashuv asosida “Tarbiya” o'quv predmetini o'qitishning asosiy pedagogik–psixologik xususiyatlari: 1) qadriyatlar asosida ta'lim mazmunini shakllantirish, ya'ni: insoniy, milliy, umumiyinsoniy qadriyatlarni kiritish, dars jarayonida bilim bilan bir qatorda axloqiy, estetik, vatanparvarlik, mehnatga sadoqat kabi qadriyatlarni singdirish; 2) o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash, ya'ni: har bir o'quvchini individual yondashuv asosida tarbiyalash, ularning ichki motivatsiyasi, e'tiqodi, hayotiy pozitsiyasi, orzu–ideallariga hurmat bilan yondashish, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy faol bo'lishga

o'rgatish; 3) ijtimoiy va madaniy muhit bilan uyg'unlik, ya'ni: ta'lim jarayonini jamiyatdagi qadriyatlar, urf-odatlar, milliy mentalitetga mos tashkil etishga erishish, oila, jamiyat va maktab o'rtasidagi uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish; 4) emotsional va axloqiy rivojlanishga e'tiborni kuchaytirish, ularda rahm-shafqat, mehr-oqibat, bag'rikenglik, hurmat kabi his-tuyg'ularni rivojlantirish; darslarni ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi muhit tarzida tashkil qilish; 5) o'quvchilarning refleksiv (o'z-o'zini tahlil qilish) qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni: qaror va tanlovlari ustida o'ylashga o'rgatish; 6) o'qituvchining qadriyatlarga yo'naltiruvchi rolini aniqlash, ularning muomalasi, odobi orqali o'quvchilarga real hayotiy qadriyatlarni ko'rsatishi lozim; 7) ta'lim-tarbiyada integrativ (birlashtiruvchi) yondashuv: fanlararo bog'liqlikda qadriyatlarni ochib berish: masalan, tarixda – vatanparvarlik, adabiyotda – ma'naviyat, biologiyada – atrof-muhitga e'tibor kabilar. Aksiologik yondashuv asosida o'qitish shuni anglatadiki, ta'lim faqat bilim berishga emas, balki shaxsning axloqiy-ruhiy va ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lishiga qaratiladi.

Tadqiqotda pedagogik aksiologiyaning ta'limdagi ahamiyati quyidagi omillarga bog'liq ekanligi ta'kidlangan: jahon ta'lim tizimining aksiologizatsiyasi; zamonaviy ta'limning qadriyat yo'nalishlarini aniqlash; avtoritar ta'lim paradigmasidan gumanistik ta'limga o'tish.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, pedagogik qadriyatlarni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq deb topilgan: jamoaviy pedagogik qadriyatlar; individual-shaxsiylashtirilgan pedagogik qadriyatlar; ta'lim oluvchining pedagogik qadriyatlari; ta'lim beruvchining pedagogik qadriyatlari.

Pedagogik qadriyatlar ma'naviy-axloqiy, kasbiy va ijtimoiy qadriyatlar sifatida guruhlanadi va ular ham umumiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, intellektual, ijodiy yo'nalishlarda shakllanadi. Pedagogik qadriyatlardan foydalanish shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnini va mavqegini, ijtimoiy faolligini, ijtimoiy tajribasini, ijtimoiy mas'uliyatini, jamiyatda o'zini o'zi anglashini, shuningdek, huquqiy madaniyat kabi fazilatlarni shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik qadriyati doirasida shaxsning individual xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari asosida ta'lim tizimining zamonaviy tendensiyalari quyidagilarni o'z ichiga olishi aniqlangan: jamiyatdagi o'zgarishlarning yuqori sur'atlari shaxsni tez o'zgaruvchan jamiyat sharoitlariga tayyorlash zaruriyatini aks ettiradi; madaniyatlararo ta'sirning kuchayishi sharoitida postindustrial, raqamli axborotga asoslangan jamiyatga o'tish; kapital va ishchi kuchi harakatchanligining yuqori darajasi tufayli raqobatning kuchayishi; jamiyatni demokratlashtirish zarurligini ta'kidlash; kelajak avlod va undan keyingi avlodlarda qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirishni talab qiluvchi xalqaro muammolarning paydo bo'lishi va o'sishi.

Zamonaviy pedagogikaning uslubiy asosi sifatida aksiologik yo'nalishni tanlash ta'limni ushbu yetakchi tushunchalarning asosiy kategoriyalarida aks ettirilgan ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini oshiradi. Pedagogik aksiologiyaning predmeti qadriyatlarni o'rganadi. U quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi tadqiq qilindi.

1. **Ilmiy pedagogik tadqiqotlar.** Qadriyatlar sifati nuqtai nazaridan tadqiqot natijalari innovatsion, dolzarb, nazariy va amaliy ilmiy usullar bilan tavsiflanadi. Samaradorlik asosida tadqiqot ilmiy, amaliy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan baholanishi mumkin.

2. **Innovatsion faoliyat.** Agar bu natijalar ta'lim maqsadiga hissa qo'shsa, ularning mazmuni va jarayoni qadriyatlar sifatida muhim ijtimoiy–pedagogik ahamiyatga ega. Bu yerda biz pedagogik tadbirlarning yangiligi, amaliy ahamiyati va boshqa qimmatli jihatlarini muhokama qilishimiz mumkin. Pedagogik qadriyatlar tizimini tushunmasdan va pedagogik hodisalarning mexanizmlarini baholamasdan turib, pedagogik innovatsiyalarning mohiyatini tushunish mumkin emas.

3. **Pedagogik tadbirlar.** Pedagogik aksiologiya deganda nafaqat yangiliklar, balki jamoat amaliyotida takrorlanib kelayotgan va pedagogik an'anaga uzoq vaqtdan beri kirib kelgan hodisa va jarayonlar ham tushuniladi. Pedagogik hodisalar pedagogik aksiologiyada o'rganilishi kerak bo'lgan qadriyatlarning birinchi yirik guruhini tashkil qiladi. Pedagogik tadbirlar o'z sifatiga ko'ra bir–biridan farq qiladi: ularning sifati hodisaning mazmuni va o'ziga xosligi bilan, uni aniqlash nuqtai nazaridan aniqlanadi.

Aksiologik yondashuvlar asosida tarbiya fanini tashkil etish jarayoni empatiya, faol tinglash, muammolarni hal qilish va sog'lom munosabatlarni saqlovchi vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy maktablarda pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim tizimi natijasida o'quvchilar fuqarolik mas'uliyatini bilishi va faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllanishi ijtimoiy faollashuviga yordam beradi. O'quvchilarda halollik, birdamlik, mas'uliyat, jasorat, erkinlik, ishonch, kamtarlik, rahm–shafqat, e'tibor, kechirimlilik, axloq, sadoqat, haqiqat, adolat, saxiylik, o'zini o'zi tarbiyalash kabi umuminsoniy qadriyatlarni tarbiya fani doirasida beriladigan mavzular asosida tushuntiriladi.

Aksiologik yondashuvlar asosida “Tarbiya” o'quv predmetini o'qitishda ta'lim ekotizimi yaratiladi. Tashabbus, maqsad uchun harakat qilish kabi amaliy tajribalar o'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini amalga oshirish uchun qo'llash hamda mas'uliyatli va vijdonli shaxs sifatida kamol topishi pedagogik qadriyatning asosiy maqsadidir. Tarbiya darslarini aksiologik yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlashga va maqsad tuzishga, ularga o'z fikrlarini ifoda etishga, o'z ustida ishlashga va o'zlarini rivojlantirishga imkon beradi. Tarbiya darslarini aksiologik yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarda halollik, birdamlik, mas'uliyat, jasorat, erkinlik, ishonch, kamtarlik, rahm–shafqat, e'tibor, kechirimlilik, axloq, sadoqat, haqiqat, adolat, saxiylik, o'zini o'zi tarbiyalash kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiradi.

Umuman, globallashuv va axborot almashinuvi davrida tarbiya darslarini aksiologik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarda o'zida bor narsalarni qadrlash, minnatdorchilik bildirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Aksiologik yondashuvlar asosida tashkil etilgan tarbiya darslari o'quvchilarni faol ijtimoiylashuviga hamda shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Aksiologik yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida umumta’lim maktablari o‘quvchilarini aksiologik yondashuv asosida o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan, ya’ni ta’lim–tarbiya jarayonida o‘quvchilarda qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash uchun mavjud bo‘lgan shart–sharoitlar, metodlar va vositalar bayoni keltirilgan. Shuningdek, aksiologik yondashuv asosida “Tarbiya” darslarini tashkil etishda o‘quv va yordamchi adabiyotlar tahlili, tarbiya fani darsliklarini ishlab chiqish tamoyillari, umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturini tahlil qilish natijasida o‘quvchilarning bilish faoliyatiga qo‘yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi va “Tarbiya” o‘quv predmetini o‘qitishning funksional modelini amaliyotga tatbiq qilish, uning ta’lim samaradorligini oshiruvchi motivatsion, kognitiv, operatsion–texnologik bosqichlarini aksiologik yondashuvga vertikal integratsiyalash usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan (1–rasm).

Ta’lim mazmunining qadriyatlarga yo‘naltirilganligi o‘quv dasturlarining insonparvarlik, vatanparvarlik, ma’naviyat, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilishi, har bir fan orqali o‘quvchilarga turli ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdirish imkoniyatining mavjudligida aks etadi. Shu jihatdan olganda, bobda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (individual yondashuv), har bir o‘quvchining dunyoqarashi, e’tiqodi, qiziqishi va qadriyatlar tizimini hisobga olgan holda ta’lim berish, o‘quvchini shaxs sifatida rivojlantirish, ularning ichki dunyosiga yo‘l topish parametrlari xususidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Aksiologik yondashuvda ta’lim va tarbiya bir butun bo‘lib, o‘quvchi faqat bilim emas, balki to‘g‘ri xulq–atvor va qadriyatlar asosida shakllanadi. O‘quvchilarni dars va darsdan tashqari faoliyatlarida tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari keng bo‘lib, bu o‘rinda o‘qituvchining roli katta. O‘qituvchi o‘zining shaxsiy fazilatlarini, qadriyatlarga asoslangan yondashuvi orqali o‘quvchilarga real namunani ko‘rsatadi. Chunki, namuna bo‘lish orqali ta’sir qilish ta’limning kuchli pedagogik imkoniyatidir. Fanlararo integratsiya orqali qadriyatlarni chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix, adabiyot, geografiya, ona tili, musiqa, huquq kabi fanlarda qadriyatlar mazmuni keng yoritiladi. Shu sababli “Tarbiya” o‘quv predmetini o‘qitishda fanlararo bog‘liqlik orqali o‘quvchilar qadriyatlar mohiyatini hayotiy misollar bilan tushunadi.

Aksiologik yondashuvni amalga oshirishda interfaol metodlar: munozara, debat, rol o‘ynash, keys–stadi, loyiha usullari orqali o‘quvchilar qadriyatlarni mustaqil o‘rganadilar. Rivojlantiruvchi va tarbiyaviy metodlar orqali o‘quvchilarga qadriyatlar chuqur singdiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” o‘quv predmetini o‘qitish jarayonida xalqimizning milliy qadriyatlarini umumiy insoniyat qadriyatlari bilan uyg‘un tarzda berish imkoniyati mavjud. Bu orqali o‘quvchilarda milliy iftixor va global qarash uyg‘otiladi.

Maktabdagi madaniy muhit, axloqiy muomala, o‘zaro hurmat, adolat, ijobiy ruh – bularning barchasi o‘quvchining qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir qiladi.

O'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatlarga (ko'ngillilik, yordam, ekologik tadbirlar) jalb qilish orqali qadriyatlar amalda o'rgatiladi.

Umumta'lim maktablarida aksiologik yondashuv asosida ta'lim berish: shaxsiy–ijtimoiy rivojlanishni, axloqiy ong va madaniyatni, ma'naviy yetuklik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi.

U quyidagilardan iborat: ta'lim va tarbiyaga shaxsning ijtimoiy va kasbiy integratsiyalashuvini belgilovchi asosiy qadriyat sifatida qarash; qadriyatlarga asoslangan fikrlashdan kelib chiqadigan individuallik; shaxsning umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilganligini oshirish orqali individual o'sish jarayonida shaxsiy rivojlanishga yo'naltirish; ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanish jarayonida shaxsiy erkinlik, mas'uliyat, majburiyat va boshqalarni tushunish zarurati; har bir shaxs va u yashayotgan jamiyatdagi odamlar tomonidan shaxsiy erkinlik, mas'uliyat, majburiyat va hokazolarni tan olishi, ya'ni har bir shaxsning qadrlanishi; ta'lim va tarbiyada, qadriyatlar, munosabat, xarakter va xulq–atvorni shakllantirishda aksiologik rahbarlikning ahamiyati.

Tadqiqotda darsliklarda berilgan mavzular asosida dars jarayonining namunaviy xarakterdagi ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini hamda tarbiyaviy kompetensiyalar belgilab chiqilgan. Ular quyidagilardir: Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga vatanga muhabbat mavzusi haqida tushunchalar berish, ona Vatanni sevishni, ustozlarni, ota-onani, qarindoshlarni, do'stlarni hurmat qilishni o'rgatish. Tarbiyaviy maqsad: har bir ishni puxta, tadbirkorlik bilan bajarishni, buning uchun irodani qanday kuchaytirish kerakligini, turli millat va dinga mansub bolalar bilan ahil, do'st bo'lib yashashni, bag'rikeng bo'lishni o'rgatish. Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini orttirish, O'zbekistonning munosib farzandi bo'lib yetishtirish.

**Tarbiya kompetensiyalari:** mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi.

5–sinf tarbiya fanidan 3–4 haftalarida o'rganilishi rejalashtirilgan “Biz o'z xatti–harakatlarimiz uchun javobgarmiz” mavzusida: “Mas'uliyat nima?”, “Mas'uliyatni qanday his etish mumkin?”, “Mas'uliyatsizlik nima?”, “Qanday harakatlar mas'uliyatsizlik hisoblanadi?” kabi savollarga o'quvchilar javob topishi kerak. Mazkur savollarga javob berishda o'quvchilar kundalik hayotda duch keladigan vaziyatlar tahlil qilinishi ijobiy samara beradi. Bu jarayonda o'qituvchilar tarbiya darslarida o'quvchilarning tasavvur etish qobiliyatlarini shakllantirishi zarurdir.

Tarbiya darslarini tashkil etishda quyidagi tamoyillar asos bo'ldi: integratsiya (fanlararo aloqadorlik), yaxlitlik, ochiqlik, harakatchanlik, komponentlarning o'zaro bog'liqligi, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, bashorat qilish, natijaviylik tushunarliklik, bilimning ijtimoiy ahamiyatini anglash. Tizimli yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarda aksiologik yondashuvni shakllantirishning quyidagi tarkibiy asoslari aniqlandi:

motivatsion–maqsadli, mazmunli, jarayonga yo‘naltirilganlik, monitoring va baholash.

Tarbiya darslarini aksiologik yondashuvlar asosida tashkil etish natijasida o‘quvchilarda “4K” shakllanadi. “4K” xalqaro ta‘lim maydonida e‘tirof etilayotgan zamonaviy ko‘nikmalar bo‘lib, ularga:

**Kreativ fikrlash:** o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi va o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

**Tanqidiy (Kritik) fikrlash:** ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi va ular muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar.


**Kommunikativlik:** o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishiga yordam beradi.

**Kollaboratsiya:** o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab–quvvatlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Aksiologik yondashuvlar asosida tarbiya darslarini tashkil etish modelida shakllanuvchi ko‘nikmalar va faoliyat sifatida: loyihalash faoliyati; mustaqil ishlash; o‘zini o‘zi refleksiv baholash; “4K”, Soft skills deb belgilab olingan.

“Tarbiya” o‘quv predmeti bo‘yicha tashkil etilgan darslarda berilgan ma‘lumotlarni kundalik hayotiy vaziyatlarga integratsiyalash asosida o‘rganish o‘quvchilarga o‘zlarini tushunishga, empatik munosabatlarga kirishishga, simbiotik muloqotni amalga oshirishda va his–tuyg‘ularni tartibga solishga yordam beradigan faoliyat va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar o‘z his tuyg‘ularini bosharishda fan o‘qituvchisi bilan amalga oshiriladigan kouching suhbat metodi ijobiy samara beradi.

**“Kouching suhbat” metodi** o‘quvchilar bilan empatik munosabatga asoslangan suhbat bo‘lib, bu suhbat o‘quvchiga o‘zini tushunishga, o‘zining kamchiliklarini ko‘ra bilishga, xatolari ustida ishlashga, o‘zini o‘zi rivojlantirishga o‘rgatadi. Psixolog ko‘rigiga borish bizning mental xususiyatlarga biroz yot tushuncha bo‘lganligi sababli tarbiya fani o‘qituvchisi o‘quvchilar bilan kouching suhbat olib borishi ta‘limdagi muhim jarayon hisoblanadi. Kouching suhbatda o‘quvchilarning xato va kamchiliklari muhokama qilinmaydi. Feedback tarzida tahlil qilinadi. O‘qituvchi bu suhbatda tinglovchi, maslahat beruvchi, yo‘naltiruvchi va feedback beruvchi faoliyatini amalga oshiradi. Bunday suhbat o‘quvchi o‘zlarini tushunishga va shaxsiy maqsadlarni belgilashga yordam beradi. Kouching tarbiya darslarida o‘quvchilarni o‘zini refleksiv baholash va o‘zini o‘zgartirish, ijobiy odatlarni shakllantirishga yordam beradi.



**“Sharhlash” metodi** jarayonini tashkil qilishda turli metod va metodlarni tanlash o‘qituvchining darsni tashkil qilishiga, uning bilim darajasiga, ijodiylikiga va o‘quvchilarning saviyalariga bog‘liq. Shularni hisobga olgan holda, har bir o‘qituvchi dars o‘tishda eng optimal metodni, yo‘lni tanlashi tabiiy. Masalan, ona tili darslaridagi asosiy maqsad, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish, til madaniyatini egallashini shakllantirib borib, shu orqali ularning o‘z fikrini hech qiynalmay, erkin va ravon bayon etishlariga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga erishish ekan, buni amalga oshirishda eng optimal usullardan biri mazkur usuldan foydalanishdir.

**“Tez yurar” metodi** o‘tilgan mashg‘ulotlardagi nazariy va amaliy yangiliklar doimo takrorlanib turgandagina o‘quvchilarning xotirasiga muhrlanib qoladi. O‘quvchilar ishtirok qilgan o‘quv materialini uzoq vaqt xotirasida saqlab qolishiga erishish uchun doimo harakat qilishi darkor. Kishi ongida aks etgan voqea–hodisa yoki holatlarni, narsa buyumlarni mustahkamlash, saqlab qolishga ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng tiklashdan iborat aqliy faoliyat xotira sanaladi. Xotiraning qay darajada mustahkam ekani, xotirada qoldirish metodlariga va uni takrorlab turishga bog‘liqdir. Qolaversa, o‘quv materialining xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishi o‘quvchining o‘quv materialini to‘la idrok qilishi va uni amaliyotga tatbiq qilishiga bog‘liq.

“Tez yurar” metodining yana bir psixologik ahamiyati takrorlash natijasida o‘quvchilarning nazariy, amaliy bilimlarining puxtalanishidir. Ma’lum mavzu o‘tilgach, o‘sha mavzu atrofida 10–15 savolga javob berish uchun o‘quvchi uni to‘la idrok qilishi kerak.

**“Surat asosida hayotiy hikoya yozish” metodidan** foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki darslikda berilgan tayyor matnni o‘qishdan ko‘ra, surat asosida mustaqil matn yaratish, o‘quvchilarda nafaqat yozma savodxonligini shakllantirishga, balki o‘zini o‘zi refleksiv baholashga, o‘z xatti–harakatlarini nazorat qilish va boshqarishga, o‘z xatolarini tahlil etib xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. “Surat asosida hayotiy hikoya” yozish metodi o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish imkoni oshiradi. “Surat asosida hayotiy hikoya” yozish metodi o‘quvchilarda real voqealikni baholash, hamda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga hamda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

“Surat asosida hayotiy hikoya yozish” metodini amalga oshirilishda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan yo‘naltiruvchi ma’lumotlar beriladi, mavzu yuzasidan real vaziyatlar tahlil qilish maqsadida suhbat o‘tkaziladi. Shu asosda mavzuga va real vaziyatlar tahliliga mos surat bo‘yicha o‘quvchilarga ijodiy matn yozish topshirig‘i beriladi.

“Tarbiya” o‘quv predmeti o‘qituvchisi tomonidan tashkil etiladigan kouching suhbatlar jamoaviy hamda yozma bayonga asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Kouching suhbatlarni jamoaviy va yozma tarzda o‘tkazish sababi tarbiya faniga kam miqdorda o‘quv yuklamasida soat ajratilganligi, haftada bir soat

